

Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari *

2026- yil yanvar-iyul


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **18 908,6** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,5** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **3 847,6** mln so'mga o'sishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2025-yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi 15 061,0 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 113,7 % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan (**13 704,3** ming so'm) 2026- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 251,1** ming so'mga yoki **16,7** % ga o'sib, **16 955,4** ming so'mni tashkil etgan.

* 2025- yil yanvar-iyul oylari hajmi va 2026- yil yanvar-iyul oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 949,1** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **57,9** % ini, jumladan, **31,7** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

II. Xizmatlar sohasini tuman(shahar)lar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining tuman(shahar)lar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari *
2026- yil yanvar-iyul

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Navoiy vil.	18 908,6	100	118,5
Navoiy sh.	4 308,9	22,8	125,4
Zarafshon sh	1 476,5	7,8	121,7
G'ozg'on sh	95,3	0,5	118,6
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	384,2	2,0	119,5
Qiziltepa	1 346,4	7,1	118,7
Navbahor	900,8	4,8	119,7
Karmana	2 304,5	12,2	120,3
Nurota	656,1	3,5	118,9
Tomdi	285,6	1,5	175,3
Uchquduq	425,4	2,2	118,9
Xatirchi	1 198,0	6,3	119,3

* Hududular bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tuman\(shahar\)lar kesimidagi hajmi](#)

Navoiy shahrining yuqori ulushi (**22,8** %) uning shahar(markaz) maqomi bilan izohlanadi, u viloyatning eng yirik shahridir. Navoiy shahrida davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Navoiy shahri rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-martdagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada

qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **12,3 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissasi **1,9** bandni tashkil etdi), yashash va ovqatlanish xizmatlari **20,3 %** ga (o'sish hissasi **5,0** bandni tashkil etdi), savdo xizmatlari **14,9 %** ga (o'sish hissasi **3,8** band), transport xizmatlari **19,5 %** ga (**2,62** bandni tashkil etdi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **19,5 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissasi **0,6** band) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **4,9 %** ga (o'sishiga hissasi **0,1** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-iyul)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025- y.	2026- y.	
Xizmatlar – jami	15 061,0	18 908,6	118,5
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	502,2	637,0	119,5
moliyaviy xizmatlar	2 375,1	2 785,4	112,3
transport xizmatlari	2 022,6	2 503,1	119,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 567,0	1 921,0	119,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 680,8	4 816,4	120,3
savdo xizmatlari	3 858,3	4 644,3	114,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	291,6	309,0	104,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	352,0	423,9	119,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	181,7	233,6	121,9
ijara xizmatlari	127,7	153,2	112,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	193,9	225,9	111,8
shaxsiy xizmatlar	304,2	373,3	113,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	506,9	893,3	159,3
boshqa xizmatlar	664,1	910,1	125,6


Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026- yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida Yashash va ovqatlanish xizmatlari **25,5 %** savdo xizmatlar **24,6 %**, moliyaviy xizmatlar **14,7 %**, transport xizmatlari **13,2 %**, boshqa xizmatlar **4,8 %** ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlar 25,6 %, yashash va ovqatlanish xizmatlar 24,4 %, moliyaviy xizmatlar 15,8 %, transport xizmatlari 13,4 %, boshqa xizmatlar esa 4,4 % ulushini tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
2026- yil yanvar-iyul, %




2026- yilning yanvar-iyul oylarida **Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarda** o'sish kuzatildi.

2025- yilning mos davriga nisbatan hajmi **893,3** mlrd so'mga yoki **59,3** foizga o'sishi kuzatilgan.

Shuningdek, Boshqa xizmatlarning ham o'sishi keskin ta'sir ko'rsatdi. 2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,8** ni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan esa **25,6** foizga o'sgan.

Telekommunikatsiya xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **avto transporti xizmatlari (119,1 %)**, **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (125,6 %)** o'sish sur'ati qayd etildi. avto transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, qatnovlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Viloyatda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **97,4 %** ni tashkil etdi. 2026- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **119,7 %** ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyeksi bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lagicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan



xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

Chiqarish uchun javobgar:
*Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi*

Manzil: 210100, Navoiy sh,
Amir Temur ko'chasi, 4-uy
Pochta: nv@navstat.uz
Tel.: 79-223-63-31